

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI  
VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

MUSIQA NAZARIYASIDAN

# KURS ISHI

MAVZU: INTERVAL

**BAJARDI:** Vokal jamoalariga rahbarligi bo'limi  
1-bosqich talabasi Quvondiqov Burhon

**TEKSHIDI:**

TOSHKENT 2013

## REJA:

### I. KIRISH

### II. ASOSIY QISM

1. Intervallar, Pog'onalar va tonlar miqdori
2. Diatonik intervallar
3. Xromatik intervallar, Intervallar engarmonizmi.
4. Konsonans va dissonans intervallari
5. Intervallarning aylanishi.
6. Tabiiy major va minor intervallari
7. Xarakterli intervallar
8. Intervallarning yechilishi.
9. Dissonans intervalining laddagi yechilishi
10. Ortirilgan va kamaytirilgan intervallarning yechilishi:
  - i.1. Kafa va kichik sekunda, kafa va kichik septima intervallarining 'laddagi yechilishi'
12. Konsonans intervallarining laddagi yechilishi
13. Dissonanslarning laddagi tortilishga bog'liq bo'lmagan echiishi (Akustik echiishi)

### III. XULOSA

### IV. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

## KIRISH

Musica – birligi, uning barcha rang-barangligi bilan badiiy obrazlarda namoyon qiluvchi, unda roʻy berayotgan voqealarga nisbatan insonning munosabatlarini aks ettiruvchi sanʼatning bir turidir. Shu bilan birga musiqa boshqa sanʼat turlaridan farq qiladi, chunki uning asosiy "qurilish ashyosi" tovushdir.

Musica - muzalar sanʼati hisoblanadi. Musica soʻzi ham shundan kelib chiqqan. (muzalar - qadimgi yunon mifologiyasidagi sanʼat va fan maʼbudalari. Ular shoir va sanʼatkorlarga ilhom beradi deb hisoblangan. Shuning uchun antik poeziya asarlarining boshida, koʻpincha muzalarga murojaat qilingan. Antik shoirlardan Gesiod (7-asr) 9 muzani eslatib oʻtadi. Xususan, Klio - tarix, **Evterpa - poeziya va musiqa**, Taliya - komediya, Melpomena - tragediya, Terpsixora - oʻyin, Ereta - muhabbat lirikasi, Poligimniya - madhiyalar, Uraniya - astronomiya, Kalliopa - epos maʼbudalaridir. Apollon muzalar xudosi hisoblangan. Muzalar obrazi Evropa tasviriy sanʼatida oʻz ifodasini topgan.)

Musica adabiyot, sheʼriyat, teatr yoki kino kabi kabi mazmunni aniq ifoda qila olmaydi. Shuningdek, u tasviriy sanʼat yoki haykaltaroshlik kabi aniq obrazlar ham yaratolmaydi. Musicaning oʻziga xos xususiyati - mazmunni yuksak umumlashma darajasida ifodalash va birinchi navbatda inson his-tuygʻulari doirasiga taʼsir qilishdan iboratdir. Roʻy berayotgan har bir hodisa, voqea, taassurotlar insonda shodlik, gʻam-hasrat, nafrat, hayron qolish, mayinlik, hayratlanish kabi oadiy soʻz bilan tasvirlab boʻlmaydigan boshqa koʻplagan javob his-tuygʻularni uygʻotadi. Oʻzbekiston hududidan topilgan qazilma yodgorliklar, shuningdek bizgacha etib kelgan yozma manbalar oʻzbek xalqi musiqa merosining juda qadimiyligidan dalolat beradi. Ogʻzaki anʼanadagi professional musiqa sanʼati 1-asrlarda yuzaga kelgan. Musiqiy ijod sohasida ham, ijrochilik sohasida ham yuksak natijalarga erishilgan. Professional musicaning nazariy asoslarini Forobiy (9-10 asrlar), Abu Ali ibn Sino (10-11 asrlar), Ibn Zayʼiy (11 asr), Xorazmiy (11 asr), Faxridain ar-Roziy (12 asr), Safiuddin al-Jrnaviy (13-asr), Mahmud ash-Sheroziy (13-asr), Xoja Abouqodir Merogʻiy (14-asr), Abaurahmon Jomiy (15-asr), keyinchalik Darvishali Changʻiy (16-17 asr) va boshqa olimlar, mualliflarning asarlarida yoritgan.

Ogʻzaki anʼanadagi professional musiqa sanʼati - janrlar va ijro anʼanalarining murakkabligidan, faqat ogʻzaki tarzda, ustoz-shogira shakida oʻrgatilgan, yaʼni ijrochi shogirdlar ustoz ashulachi va sozanda ardan uzoq yillar davomida taʼlim olganlar. Oʻrta asrlardayoq maʼlum boʻlgan (Forobiy, Mahmud ash-Sheroziy va boshqalarning risolalarida) nota yozuvlar musiqa amaliyotida qoʻllanilmagan. 19 asrning 3-choragida Xorazmda ixtiro qilingan tanbur enizigʻi saroy maʼmorchilarining tor doirasida ishlatilgan, xolos.

## INTERVALLAR


### INTERVAL. POG'ONALAR VA TONLAR MIQDORI

**Interval**<sup>1</sup> ikki tovushning balandlik bo'yicha uyg'unlashuvidir.

Interval tovushlari birin-ketin chalinsa **melodik interval**, bir vaqtning o'ziga chalinsa **garmonik interval**ni hosil qiladi. Intervalning pastki tovushi uning asosi, yuqorigi tovushi esa cho'qqisi deyiladi.

Intervallar pastdan yuqoriga qarab o'qiladi, faqat pasayuvchi melodik interval uning yo'nalishi aytilib, pastga qarab o'qiladi.

Interval pog'onalar miqdori va tonlar miqdori bilan o'chanadi. **Pog'onalar miqdori**, ya'ni miqdoriy kattaligi, interval hajmidan darak berib, u qamrab olgan pog'onalar sonini raqam bilan ko'rsatadi hamda interval o'ziga uning pog'onalar soniga muvofiq lotincha nom beradi. **Tonlar miqdori**, ya'ni sifat kattaligi, intervalning asosidan cho'qqisigacha ton va yarim tonlikar yig'indisini aytadi.



Intervallar o'zining hajmi (zich-kengligi) bo'yicha ikkita guruhga ajraladi:

- 1) oktava chegarasida hosil bo'lgan **oddiy intervallar**,
- 2) oktavadan keng bo'lgan **tarkibli intervallar**.

**Oddiy intervallar** quyidagicha nomlanadi:

- Prima yoki unisoni – 1 – bitta pog'ona;
- Sekunda – 2 – ikkita pog'ona;
- Tertsiya – 3 – uchta pog'ona;
- Kvarta – 4 – to'rtta pog'ona;
- Kvinta – 5 – beshta pog'ona;
- Seksta – 6 – oltita pog'ona;
- Septima – 7 – etti ta pog'ona;
- Oktava – 8 – sakkizta pog'ona.

<sup>1</sup> Interval (lotincha *intervallum*) – orak.

<sup>2</sup> Unison (italiyancha *unisono*; *unus* – bitta, *sonus* – tovush) – ikkita ovozning bitta tovushda uyg'unlashishi.



### Tarkibli intervallar:

Nonna – 9 – to'qqizta pog'ona, oktava oralab sekunda

Detsima – 10 – o'nta pog'ona, oktava oralab tertsiya

Undetsima – 11 – o'n bitta pog'ona ---//--- kvarta


Duodetsima – 12 – o'n ikkita pog'ona --// kvinta

Tertsdetsima – 13 – o'n uchta pog'ona --//-- seksta

Kvartdetsima – 14 – o'n to'rtta pog'ona -/- septima

Kvintdetsima – 15 – o'n beshta pog'ona -/- oktava


Ayrim hollarda pog'onalar miqdori bir xil bo'lgan intervalning tonlar miqdori har xil chiqadi. Interval sifatini aniqroq atash uchun qo'shimcha atamalar qo'llaniladi. Bular: sof (s, bilan belgilanadi), katta (kat.), kichik (kich.), orttirilgan (ort.), kamaytirilgan (kam.) kabi yordamchi so'zlar.



### Diatonik intervallar

Diatonik lad pog'onalari o'rtasida hosil bo'lgan intervallar **diatonik intervallar** deyiladi. Diatonik intervallar o'z ichida ikkita guruh – asosiy va xarakterli intervallarga ajraladi. **Asosiy** intervallar major va minorning tabiiy ko'rinishi pog'onalarida, **xarakterli** intervallar esa major va minorning garmolik ko'rinishi pog'onalarida tuziladi. (xarakterli intervallar haqida 7-sonchi mavzuda gapiriladi).

Oddiy asosiy (14 ta) intervallarning tonlar miqdori ko'payishi bo'yicha ketma-ket joylashuvi quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.



Asosiy intervallarni musicoaviy tovushdasturining asosiy yoki hosila pog'onasidan yuqoriga yoki pastga tuzish mumkin.

## XROMATIK INTERVALLAR. INTERVALLAR ENGARMONIZMI.

**Xromatik interval** orttirilgan va kamaytirilgan intervallarga deyiladi (bular qatoriga uchtonliklar – ort.4 va kam.5, hamda xarakterli – ort.2, kam.7, ort.5, kam.4 intervallar kirmaydi).

$\left[ \begin{array}{c} \text{ort.} \\ \text{+ 0,5 t -} \\ \text{kam.} \end{array} \right] \left[ \begin{array}{c} \text{ort.} \\ \text{- 0,5 t -} \\ \text{Sof} \end{array} \right]$  Sof intervallar yarim tonga kengayishi natijasida orttirilgan, yarim tonga qisqarishi natijasida kamaytirilgan interval hosil bo'ladi.

Kichik intervalning yarim tonga qisqarishi natijasida kamaytirilgan,  $\left[ \begin{array}{c} \text{ort.} \\ \text{+ 0,5 t -} \\ \text{kam.} \end{array} \right] \left[ \begin{array}{c} \text{ort.} \\ \text{- 0,5 t -} \\ \text{kich.} \end{array} \right] \left[ \begin{array}{c} \text{ort.} \\ \text{+ 0,5 t -} \\ \text{kat.} \end{array} \right] \left[ \begin{array}{c} \text{ort.} \\ \text{- 0,5 t -} \\ \text{ort.} \end{array} \right]$  katta intervalning yarim tonga kengayishi natijasida orttirilgan interval tuziladi. Agar katta interval butun tonga qisqaradigan bo'lsa, kamaytirilgan interval hosil bo'ladi, va aksincha kichik interval butun tonga kengaysa, orttirilgan interval vujudga keladi.

Xromatik interval tonlar miqdori bo'yicha albatta birorta asosiy intervalga teng keladi. Tonlar miqdori bir xil bo'lgan intervallarning eshitiilishi ham bir xil bo'ladi. Bunday intervallarga **engarmonik teng**



**intervallar deyiladi.** Engarmonik teng intervallarning pog'onalar miqdori esa bir xil yoki nar xil bo'lishi mumkin.

### Konsonans va dissonans intervallari

Diatonik intervallar o'zining garmonik yangrashi sifati bo'yicha **konsonans**<sup>3</sup> (ohangdosh) va **dissonans**<sup>4</sup> (nohangdosh) intervallarga ajraladi.

Musika nazariyasida **dissonans** bo'lib **sekunda, septima va uchtonliklar** (ort.4, kam.5) hisoblanadi. (bularga muvofiq tarkibli intervallar nam nazarda tutiladi). **Keskin dissonanslar** deb kichik sekunda (kich.2q0.5t), katta septima (kat.7q4.5t) va uchtonliklar (ort.4, kam.5) nazarda tutiladi.

**Yumshoq dissonanslar** – katta sekunda (kat.2q1t), kichik septima (kich.7q5t.)

<sup>3</sup>Konsonans – (lotincha consonantia) – uyg'un sado.

<sup>4</sup>Dissonans – (lotincha dissonantia) – uyg'un siz sado.

Konsonanslarga qolganlari - *prima, oktava, kvarta, kvinta, tertsiya, seksta* lar mansub. Qattik konsonanslar - *sof intervallar*: *prima* bilan *oktava* - nihoyat mukammal konsonanslar, hamda *kvarta* bilan *kvinta* - mukammal konsonanslar deb hisoblanadi. Yumshoq konsonanslar - *tertsiya* va *seksta*.

### INTERVALNING AYLANISHI

*Intervalning aylanishi* - bu uning asosi bilan cho'tiqisi joylarini almashtirish maqsadida pastki tovushini yuqoriga, yuqorigisini pastka bir yoki bir necha oktavaga ko'chirishdir (ikkala harakat bir vaqtda bajarilishi ham mumkin). Natijada dastlabki *intervalning aylanmasi* deb aytiladigan yangi interval hosil bo'ladi.

48



Oddiy intervallar aylanishi quyidagi qonuniyatlarga bo'ysunadi:

- 1) oddiy interval bilan aylanmasining umumiy hajmi oktavaga teng;
- 2) ikkala intervalning tonlar miqdori yig'indisi oktavaning 6 toniga barobar:  
 $2,5 \text{ ton} + 3,5 \text{ ton} = 6 \text{ ton}; \quad 6 \text{ ton} - 4,5 \text{ ton} = 1,5 \text{ ton};$
- 3) ikkala intervalning pog'onalar miqdori yig'indisi 9 ga barobar:  
*prima* 1 + 8 *oktava* = 9;      *sekunda* 2 + 7 *septima* = 9  
*tertsiya* 3 + 6 *seksta* = 9;      *kvarta* 4 + 5 *kvinta* = 9
- 4) sof interval sof intervalga aylanadi, katta interval kichikka, kichik - kattaga, orttirilgan - kamaytirilganga, kamaytirilgan orttirilganga.

49

Sof.	↔	sof.
kich.	↔	kat.
Kam.	↔	ort.



**Asosiy tushunchalar:** *Interval, pog'onalar miqdori, tonlar miqdori, oddiy va tarkibli intervallar, diatonik va xromatik intervallar, intervallar engarmonizmi, konsonans va dissonans intervallari, intervalning aylanishi.*

## TABIY MAJOR VA MINOR INTERVALLARI

### Tabiiy major va minor intervallari.

Tabiiy major va tabiiy minor pog'onalarida faqat diatonik intervallar, ya'ni sof, katta, kichik va uchtonliklar (ort.4, kam.5) hosil bo'ladi. Yettita pog'onaning har birida oddiy intervallarni tuzish mumkin. Biroq, har xil pog'onalardan tuzilgan bir turdagi interva (masalan, tertsiya)larning sifati (katta, kichik) turlicha bo'ladi.

**Tabiiy majorda sof prima bilan sof oktava** barcha pog'onalarda tuziladi.



- Sekundalar** – 2 ta kichik – III- va VII- pog'onalarda tuziladi,  
5 ta katta – qolgan pog'onalarda tuziladi.
- Tertsiyalar** – 3 ta katta – I-, IV-, V- larning asosiy pog'onalarida,  
4 ta kichik – qolgan pog'onalarda tuziladi.
- Kvartalar** – 1 ta orttirilgan – IV- pog'onada,  
6 ta sof – qolgan pog'onalarda tuziladi.
- Kvintalar** – 1 ta kamaytirilgan – VII- pog'onada,  
6 ta sof – qolgan pog'onalarda tuziladi.
- Sekstalar** – 3 ta kichik – III-, VI-, VII- pog'onalarda,  
4 ta katta – qolgan pog'onalarda tuziladi.
- Septimalar** – 2 ta katta – I-, IV- pog'onada,  
5 ta kichik – qolgan pog'onalarda tuziladi.

pog'onalar	sekunda	tersiya	kvarta	kvinta	seksta	septima
I	kat	kat	sof	sof	kat	kat
II	kat	kich	sof	sof	kat	kich
III	kich	kich	sof	sof	kich	kich
IV	kat	kat	ort	sof	kat	kat
V	kat	kat	sof	sof	kat	kich
VI	kat	kich	sof	sof	kich	kich
VII	kich	kich	sof	kat	kich	kich

**Tabiiy minorda** mazkur intervallar ikki pog'ona yuqoriroq joylashadi. Masalan, orttirilgan kvarta majorning IV- pog'onasida joylashgan. minorda esa u VI- pog'onada tuziladi.

**Tabiiy minorda** sof prima bilan sof oktava barcha pog'onalarda tuziladi.

Sekundalar – **2 ta kichik** – V- va II- pog'onalarda tuziladi,

5 ta katta – qolgan pog'onalarida tuziladi.

Tertsiyalar – **3 ta katta** – II-, V-, VII- larning asosiy pog'onalarida,

4 ta kichik – qolgan pog'onalarda tuziladi.

Kvartalar – **1 ta orttirilgan** – VI- pog'onada,

6 ta sof – qolgan pog'onalarda tuziladi.

Kvintalar – **1 ta kamaytirilgan** – II- pog'onada,

6 ta sof – qolgan pog'onalarda tuziladi.

Sekstalar – **3 ta kichik** – V-, -, II- pog'onalarda,

4 ta katta – qolgan pog'onalarda tuziladi.

Septimalar – **2 ta katta** – III-, VI- pog'onada.

5 ta kichik – qolgan pog'onalarida tuziladi.

Ushbu intervallarning pog'onalar bo'yicha taqsimoti (intervallar nomi raqam bilan ifodalangan):

Minor g'ona	Intervallar sifati				
	katta	Kichik	sof	orttirilgan	amaytirilgan
I		3, 6, 7	4, 5		
II		3, 6, 7	4		5
III	3, 6, 7		4, 5		
IV	6,	3, 7	4, 5		
V		3, 6, 7	4, 5		
VI	3, 6, 7		5		
VII	3, 6,	7	4, 5		

pog'onalar	sekunda	tertiya	kvarta	kvinta	seksta	septima	tabiiy to'g'ona pog'onalar
I	kat	kich	sof	sof	kich	kich	VI
II	kich	kich	sof	kat	kich	kich	VII
III	kat	kat	sof	sof	kat	kat	I
IV	kat	kich	sof	sof	kat	kich	II
V	kich	kich	sof	sof	kich	kich	III
VI	kat	kat	sof	sof	kat	kat	IV
VII	kat	kat	sof	sof	kat	kich	V

## XARAKTERLI INTERVALLAR

**Xarakterli intervallarning tuzilishi.**

**Garmonik major va garmonik minor** pog'onalarida hosil bo'ladigan intervallar ham diatonik intervallardir. Ladlarning ushbu turida alteratsiyalangan pog'onalarini bilan bog'liq intervallar sifatida bir oz o'zgaradi. Alteratsiyalangan pog'ona intervalning asosiy yoki cho'qqisi bo'lib xizmat qiladi.

Garmonik majorda yarim tonga pasaytirilgan VI- pog'onadan tuzilgan intervallar qatorida (asosiy intervallardan tashqari) 2 ta yangisi paydo bo'ldi – **orttirilgan sekunda** va **orttirilgan kvinta (ort.2, ort.5)**.

Pasaytirilgan VI- pog'ona interval cho'qqisi sifatida olinganda yana 2 ta yangi interval – **orttirilgan intervallarning aylanmasi** hosil bo'ladi: – **kamaytirilgan kvarta, kamaytirilgan septima (kam.4, kam.7)**.

Garmonik minorda yarim tonga ko'tarilgan VII- pog'onadan tuzilgan intervallar qatorida ham 2 ta yangi interval tashkil topadi – **kamaytirilgan kvarta va kamaytirilgan septima (kam 4, kav7)**.

Ko'tarilgan VII- pog'ona interval cho'qqisi sifatida olinganda kamaytirilgan intervallarning aylanmasi hosil bo'ladi – **orttirilgan sekunda va orttirilgan kvinta (ort.2, ort.5)**.

Mazkur to'rtda intervalni **xarakterli intervallar** deb aytadi.

Garmonik minor va garmonik major pog'onalarida tuzilgan intervallar taqqoslash jadvali:

Garmonik major va minorda **uchtonliklarning** yana bittadan juftligi paydo bo'ladi. Endi orttirilgan kvarta (ort.4) IV- va VI- pog'onalarda, kamaytirilgan kvinta (kam.5) VII- va II- pog'onalarda tuziladigan bo'ladi.

**Ortirilgan sekunda** (ort.2) garmonik majorda ham, garmonik minorda ham VI- bilan VII-pog'onalar orasida, uning aylanmasi **kamaytirilgan septima** (kam.7) VII- bilan VI- pog'onalar orasida tuziladi.

**Ortirilgan kvinta** (ort.5) va uning aylanmasi **kamaytirilgan kvarta** (kam.4) garmonik major va garmonik minorning II- pog'onasi bilan alteratsiyalangan pog'ona orasida tuziladi:

majorda – III- pog'ona va pasaytirilgan VI- pog'ona,  
 minorda – III- va ko'tirilgan VI- pog'ona oralig'i.

75

The image shows two musical staves. The top staff is labeled 'C-dur' and the bottom staff is labeled 'c-moll'. Both staves show a sequence of chords with their corresponding fingerings (1,5 and 4,5) and positions (ort2, ham7, ham4, ort5). The chords are labeled with Roman numerals VI, VII, and III.

### INTERVALLARNING YECHILISHI.

Lad pog'onalarini turg'un va noturg'un pog'onalariga ajraladi. Intervallar ham turg'un va noturg'un bo'ladi. Intervallning turg'un yoki noturg'unligi uning lad xususiyatini aniqlaydi.

Turg'un intervalning tovushlari ladning turg'un pog'onalaridir. Yangrashi bo'yicha ular faqat konsonans ohangini vujudga keltiradi.

Noturg'un intervalning bitta yoki ikkala tovushi ladning noturg'un pog'onasiga joylashadi. Noturg'un interval yangrashi bo'yicha ham konsonans, ham dissonans bo'lishi mumkin. Masalan: re-minorda interval mi – iya – sof kvarta, eshitilish bo'yicha – konsonans, lad xususiyati bo'yicha – noturg'un interval, negaki mi tovush I- noturg'un pog'onadir. Dissonans intervallarga sekunda, septima, uchtonliklar va xromatik intervallar kiradi. Ba'zi oltirilgan va kamaytirilgan intervallar o'zining akustik yangrashi bilan konsonansdek eshitiladi. Ammo lad jihatidan ularga dissonans interval tarzida qaraladi.

Lad pog'onalariga o'xshab noturg'un intervallar ham turg'unlarga intiladi. **Noturg'un intervalning yechilishi** – uning turg'un intervalga o'tishidir.

**Dissonans intervalning yechilishi** deb uning konsonansga o'tishiga aytiladi.

Intervalning **yechilish jarayonida** noturg'un pog'ona o'z tortilishi bo'yicha qo'shni turg'un pog'onaga o'tadi, turg'un esa o'z joyida qoladi.

Shunga ko'ra, biror intervalni to'g'ri yechish uchun dastavvai lad (major yoki minor) tanlanadi. So'ng, mazkur interval ladning qaysi pog'onalarida tuzilishi mumkinligi aniqlanadi. O'sha pog'onalardan biri intervalning asosi bo'ladi, cho'saqi pog'onasi esa hisoblab chiqiladi. Pog'onalar turg'un-noturg'unligi bilindandan keyin intervalning yechilishi amalga oshiriladi va turg'un pog'onalar bo'yicha uning tonaligi topiladi.

**Orttirilgan intervallar yechilganda** o'zidan keng intervalga (o'zidan tashqariga – pastki tovush pastga, yuqorigisi yuqoriga) o'tadi. **Kamaytirilgan intervallar** esa o'zidan tor intervalga (ichkariga – pastki tovush yuqoriga, yuqorigisi - pastga) o'tadi.

**Xarakterli intervallarning yechilishi:** orttirilgan sekunda har doim sof kvartaga, kamaytirilgan septima – sof kvintaga, orttirilgan kvinta – katta sekstaga, kamaytirilgan kvarta – kichik tersiyaga yechiladi.

C-dur gammouk:

ott.2 VI    sof.4    kain.7 VII    sof.5    ott.5 VI    kat.6    kain.4 III    kat.3

a-moll gammouk:

ott.2 VI    sof.4    kain.7 VII    sof.5    kain.4 VII    kich.3    ott.5 III    kat.6

**Asosiy tushunchalar:** xarakterli intervallar, turg'un va noturg'un interval, konsonans va dissonans interval, intervallarning yechilishi.

a-moll gammouk

ott.2 VI    sof.4    kain.7 VII    sof.5    kain.4 VII    kat.3    ott.5 III    kat.6

Tayanch tushunchalar

**Intervallarning echilishi** - dissonans intervalni konsonansga yoki noturg'un intervalni turg'un intervalga o'tishi.

## DISSONANS INTERVALLARNING LADDAGI ECHILISHI

Dissonanslarning laddagi echilish tamoyilari - noturg'un tovushlarni tonika uchtovushligi tovushlariga o'lishiga asoslanganligi sababli, har bir dissonansni laddagi echilishini to'g'ri amarga oshirish uchun, birinchi navbatda bu dissonansni qaysi tonallikka tegishi ekanligini aniqlash lozim.

Tonallikni berilgan interval gammaning qaysi pog'onasida joylashganligidan kelib chiqib, shu pog'onadan tonikagacha bo'lgan zarur intervalni sanab topish mumkin. Masalan,  $re\# - do$  kam.7 intervali garmonik mi-majorda va garmonik mi-minorda uchrashi mumkin, chunki kam.7 intervali garmonik major va minorning VII pog'onasida tuziladi,  $re\#$  tovushi esa xuddi shu tonalliklarning VII pog'onasi hisoblanadi.


Har bir noturg'un tovush o'ziga yaqin turg'un turg'un tovushga tortiladi, shuning uchun dissonanslarning laddagi echilishida har bir echiluvchi tovush o'ziga yaqin bo'lgan turg'un pog'onaga ravon harakat qiladi, bunda u katta yoki kichik sekundaga harakat qiladi. Agar dissonansning har ikkala tovushi noturg'un bo'lsa, ular ravon harakat bilan pog'onama-pog'ona echiladilar. Agarda dissonans tovushlaridan birortasi turg'un bo'lsa, echilishda bu tovush o'z o'rnida qolishi mumkin yoki sakrash yo'li bilan o'z tonalligining boshqa turg'un tovushiga o'tadi.

Dissonanslarning echilishida barcha orttirilgan intervallar kengayadi, kamaytirilgan intervallar esa torayadi.

## ORTTIRILGAN VA KAMAYTIRILGAN INTERVALLARNING YECHILISHI


**Orttirilgan kvartaning** ikkala tovushi ham noturg'un tovushdir va shuning uchun u echilishni talab etadi. Bunda intervalling cho'qqisi sekunda yuqoriga, asosi bo'lsa sekunda pastga - o'ziga mos tonallikning turg'un tovushiga o'tadi, natijada *kaf.6* yoki *kich.6* intervali hosil bo'ladi.

Masalan,  $fa-si$  ort.4 intervali quyidagicha echiladi:




**Kamaytirilgan kvinta** intervalining echilishida uning asosi sekunda yuqoriga, cho'qqisi esa sekunda pastga, o'z tonalligining turg'un tovushlariga o'tadi, natijada *kaf.3* yoki *kich.3* intervali hosil bo'ladi.

**Kam.5** ning echilishi ort.4 aylanmasining echilishi hisoblanadi. Masalan,  $si - fa$  kam.5 intervali quyidagicha echiladi:



am.5 intervallari zanjirining echilishiga misol: (chap va o'ng qo'l <sup>K</sup> partiyalarida):

P. Chaykovskiy. "Bolalar albomi", №4 "Onajon"




Ort.4 va kam.5 – engarmonik teng intervallardir, ammo ularning echi ishlari turlichadir, chunki bu intervallar turlicha pog`onalarda vaturalicha tonalliklarda joylashadilar. Masalan, mi<sup>'''</sup> - Iya ort.4 re# - Iya kam.5 intervaliga engarmonik tengdir.

Ammo, mi<sup>'''</sup> - Iya ort.4 intervali IV yoki VI pog`onada, re# - Iya kam.5 intervali esa faqat VII va II pog`onalarda joylashishlari mumkin (bu intervallarni tonalliklarini bizga ma'lum pog`onalardan kelib chiqib topish mumkin).


Agar bu interval mi<sup>'''</sup> - Iya ort.4 sifatida qaralsa, unda mi<sup>'''</sup> tovushini IV yoki VI pog`ona deb qabul qilish mumkin. Birinchi holatda bu ort.4 ning tonaligi B-dur yoki b-moll (garmonik), ikkinchi holatda esa G-dur (garmonik) yoki g-moll bo`ladi. Intervallarni laddagi echi shi tamoyillarini esab, bu ort.4 ni barcha to`rtta tonallikda osongina echsa bo`ladi:



Basharti bu intervalni re# - Iya kam.5 deb qaralsa, unda re# tovushini faqat VII yoki II pog`ona deb qabul qilinadi. Birinchi holatda bu ort.5ning tonaligi E dur yoki e-moll (garmonik), ikkinchi holatda esa Cis-dur (garmonik) yoki cis-moll bo`ladi. Shunga muvofiq, re# - Iya kam.5 quyidagicha echiladi:



**Orttirilgan sekunda** interval faqat garmonik major va garmonik minorning VI pog'onasida uchraydi. Uning ikkala tovushi ham (VI va VII pog'onalar) noturg'un bo'lib, tortilish qoidasi bo'yicha echiladi va major da nam, minor da ham sof.4 intervalini hosil qiladi.




**Kamaytirilgan septimaning** echilishi ort.2 ni aylanmasini echilishining o'zidir. Kam.7ning ikkala tovushi ham tortilish qoidasi asosida sof.5 ni hosil qilib echiladilar.





Quyida keltirilgan misolda turlicha echilishlarning namunalari ko'rish mumkin:

V.A. Motsart, K. V. Glyukning "Makka sayyohlari" operasi mavzusiga variatsiyalar. Var. №3





**Kamaytirilgan kvarta** intervali faqat garmonik major (III pog'onada) va garmonik minorda (VII pog'onada) uchraydi.

Garmonik majorda kam.4 III va VI pog'onalardan iborat bo'ladi, uning asosi III pog'ona turg'un tovush bo'lib, echilganda o'z o'rnida qoladi. Kam.4 ning cho'qqisi garmonik majorda pasaytirilgan VI pog'ona bo'lib, o'zining tortilishi bo'yicha kichik sekunda pastga, gammaning V pog'onasiga echiladi:



Garmonik minorda kam.4 VII va Ili pog'onalardan iborat bo'ladi. Uning asosi ko'tarilgan VII pog'ona bo'lib, o'zining tortilishi bo'yicha kichik sekunda yuqoriga, tonikaga o'tadi. Kam.4 ning cho'qqisi garmonik minorda Ili turg'un pog'ona bo'lib, echilganda o'z o'rnida qoladi:



Kam.4 intervali majorda ham, minorda ham kich.3ga echiladi. Ammo, u majorda cho'qqining harakati bilan kichik sekunda pastga, minorda esa asosining harakati bilan kichik sekunda yuqoriga echiladi.

Quyida keltirilgan nota misolining 2 takrida kam.4 ning echilish namunasiga e'tibor bering:

Leato ma non troppo

**Orttirilgan kvinta** kam.4 ning aylanmasidan iborat bo'lib, garmonik majorda (VI pog'onada) va garmonik minoraa (III pog'onada) uchraydi. Garmonik majorda uning asosi pasaytirilgan VI pog'ona bo'lib, o'z tortilishi bo'yicha V pog'onaga echiladi, cho'qqisi bo'lsa - III pog'ona - turg'un tovush bo'lib, echilganaa o'z o'mida qoladi.


Garmonik minorda ort.5 III va VI pog'onalarda hosil bo'ladi. Uning asosi - III pog'ona - turg'un tovush, echilganada o'z o'mida qoladi.

## KATTA VA KICHIK SEKUNDA, KATTA VA KICHIK SEPTIMA INTERVALLARINING LADDAGI ECHILISH NAMUNALARI



Yuqorida keltirilgan jadvalda katta va kichik sekunda va septimalarning turlicha echilish usublari ko'rsatilgan. Echilishlar bir qarashda turli-  
rumanday tuyulishiga qaramasdan, ularning asosida yagona tamoyil:  
noturg'un tovushlarni turg'un tovushlarga o'tishi yotadi.

An'anaviy musiqa nazariyasida sekundalarning primaga va septimalarning oktavaga echilishi mu'avo maqsadga muvofiq emas, deb hisoblanadi. Quyida, kam bo'lsada xalq va professional musiqada uchrab turadigan ana shunday noan'anaviy echilishlarga misol keltiramiz:



## KONSANANS INTERVALLARNING LADDAGI YECHILISHI

Noturg'un konsananslar lad tortilishilari qonuniga bo'ysunib, turg'un tovushga intiladilar. Amaliyotda barcha tona ikklarda ham noturg'un konsananslarni echishda tonallikning tonika uchtovushligi tovushlarini turg'un ekanligini va noturg'un tovushlarni tortilish yo'nalishlarini esda tutish lozim. Misol sifatida ba'zi noturg'un konsananslarni mumkin bo'lgan echilishlarini keltiramiz.

### Tertsiyalar

C-dur

### Kvintalar

### Sekstalar

### Kvartalar

### Tertsiyalar

b-dur

## DISSONANSLARNING LADDAGI TORTILISHGA BOG'LIQ BO'LMAGAN YECHILISHI


(Akustik echilish)

interva"larning lad tortilishlari bo'yicha echilishlaridan tashqari musiqa da dissonanslarni konsananslarga (ularni turg'un yoki noturg'unligidan as'iy

nazar] o'lishi bilan bog'liq echilish turlari ham bor. Bunda orttirilgan va kamaytirilgan intervallarni echilishi ko'pincha lad tortilishi bo'yicha echilishga mos keladi. Katta va kichik sekunda va septimalar, shuningdek so' kvartalar esa faqat ayrim holatdagina lad echilishiga mos keladi, shunga ko'ra boshqa qoidalar bo'yicha ham echiladilar.

Bu intervallarni echilish an'analar XVII asrgacha bo'lgan qat'iy uslubdagi polifonik musiqa da yuzaga kelgan. Bu musiqaning asosini major-minor tizimi emas, balki, har holda lad tortilishlar bo'lmagan o'rta asr laclari tashkil etgan.

Bu an'analarga muvofiq, sekundaning asosi dissonans tovush hisoblanib, ravon harakat bilan katta yoki kichik sekunda pastga yo'naltiriladi. Uning cho'qqisi erkin tovush hisoblanadi va echilishda o'z joyida qoladi yoki pastki tovush bilan konsanans hosil qiluvchi boshqa tovushga o'tadi. Odatda sekundaning cho'qqisi kvarta yuqoriga sakraydi. Shunday qilib, sekunda tertsiyaga yoki sekstaga echiladi.



Musiq a sarlaridagi har bir interval u yoki bu tonallikda jaranglashi sababli, asosni katta yoki kichik sekunda pastga yo'naltirilishi tonal asosga bog'liq bo'ladi. Masalan, yuqorida keltirilgan misoldagi Iya - si intervali sol<sup>o</sup> tovushi bo'lgan tonalliklarda (Iya major, fa<sup>o</sup> minor va h.k.) kich.2 pastga, sol<sup>o</sup> tovushi bo'lmagan tonalliklarda (do major, sol major va h.k.) kat.2 pastga yo'naltiriladi.

Kichik sekunda - interval asosini kat.2 ga yurishi bilan echiladi (chunki hech bir laada yonma-yon joylashgan ikkita kichik sekunda uchramaydi), masalan:




Shunga muvofiq sekundalarni aylanmasi bo'mish septimalarda intervalning cho'qqisi dissonans, asosi esa erkin tovush hisoblanadi. Shuning uchun, septima - cho'qqining pastga tomon ravon harakati orqali echiladi, asos esa o'z o'rnida qoladi yoki kvartaga sakrash bilan yuqoriga ko'tariladi:




Septimalar echilishida cho`qqining katta yoki kichik sekundagi yurishi tonal asosga bog`liq bo`ladi.

Katta septima, xuadi kichik sekunda kabi cho`qqining faqat kat.2 ga yurishi orqal` echilishi mumkin:




Nona intervali ikk`xi usul bilan echiladi:


a) cho`qqi sekunda pastga (katta nonada – kat.2 ga, kichik nonada – kich.2 ga) harakat qiladi, asos esa o`z o`rnida qoladi yoki sof.4 ga sakrash orqali yuqoriga ko`tariladi. Natijada sof. 8 yoki sof.5 hosil bo`ladi:



b) nonaga - oktava orqal` sekunda, deb qaraladi va sekunda kabi ech`adi, shu bilan birga, cho`qqining kvarta yuqoriga sakrashi odatda, kvinta pastga sakrash bilan almashtiriladi:




Qat'iy polifonik yozuv davrida ikkala tovushni ham erkin kvarta dissonans hisob.angan. Ammo, kvarta ko`pincha cho`qqining katta yoki kichik sekunda pastga yo`naltirilishi bilan echiladi. Shunday qilib, kvarta tertsiyaga ech`adi:



Yechilish namunalarini quyidagi nota misolida ko`ring: 3-taktda – sekundaning echilishi, birinchida – kvartaning, oxirigida – septimaning, ikkinchida nonaning echilishlari ro`y bergan:

A. Yuryan qayta ishlagan (1856-1922)

latish xalq qo`shig`i



Mazkur musiqa asarida laddagi echilish bilan lad tortilishiga bog'liq bo'lmagan echilish orasidagi farq aniq his qilinadi. Laddagi echilishda sekunda, septima va kvarta tonallikdagi turg'un tovushlarga o'tib, tugallanganlik taassurotini hosil qiladi. Lad tortilishi bilan bog'liq bo'lmagan echilishda esa, noturg'unlik taassurotlarini to'planishi yuz beradi, undan keyin, turg'unlikka echilishga bo'lgan ehtiyoj ayriqsa, shiddatli ravishda his qilinadi.

Yechilishda tugallanganlikni to'la his qilish uchun uni turg'un intervalgacha etkazish zarur. Natijada juft echilish ro'y berib, dissonans noturg'unlikka echiladi va bu noturg'unlik o'z navbatida turg'un tovushlarga echiladi. Yakuniy echilishni aniq idrok qilish uchun eshituv organlarini u yoki bu tonallikka oldindan tayyorlash zarur (hech bo'lmaganda tonalikni tonika uchtoshligini chalib ko'rib) bo'ladi.

Yuqorida qayt qilinganlarni *fa – sol* va *fa – sol'* sekundalarini turlicha tonalliklarda juft echilish misollari bilan tushuntiramiz.

kat.2

kich.2

Shuningdek, kat.7 va kich.7 intervallarini uchta bemoli tonalliklarda juft echilishlarini ham qarab chiqamiz:

Echilishni boshqacha variantlari ham bo'lishi mumkin ammo, maqsad bitta, u nam bo'lsa echilishni turg'un tovushlargaacha etkazishdir.

## XULOSA

Kuy yoʻnalishi kabi, ohangdoshliklar ham turlicha balandlikdagi tovushlarning qoʻshiluvidan hosil boʻladi.

Onangaoshik – bu tovushlarning bir vaqtda qoʻshilib eshitilishi boʻlsa, kuy turlicha balandlikdagi tovushlarning ketma-ket kelishidan hosil boʻladi.

Musiqaada ikkita tovushning bir vaqtda yoki birin-ketin qoʻshilib eshitilishiga **interval** deyiladi.

Interval - italyanча intervalo soʻzidan olingan boʻlib, aynan "oraliq" yoki "masofa" maʼnosini beradi.

Intervalning pastki tovushiga uning **asosi**, yuqori tovushiga esa **choʻqqisi** deyiladi.

Interval musiqiy tilning yoki musiqa asarining ayrim bir qismi boʻlishi bilan birga musiqiy rivojlanishning barcha jarayonlari bilan chambarchas bogʻliqdir.

Intervalar va ularning xususiyatlarini oʻrganish – musiqiy-nazariy fanlar kompleksini oʻzlashtirishda oʻta muhim pogʻona hisoblanadi.

Musiqada interval bayoni ikki shaklda: garmonik va melodik shaklda boʻlishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Azimova O.N. Garmoniya. Nazariy kurs. T., 2000.
2. Akbarov I.A. Musiqa lug'ati. Maxsus muharrir T.B.G'ofurbekov. 2- nashri. T., 1997.
3. Alekseev B. Zadachi po garmonii. M., 1982.
4. Vaxromeev V.A. Musiqaning elementar nazariyasi. T., 1983.
5. Dubovskiy I, Evseev S, Sposobin I, Sokolov «Garmoniya darsligi». T., 1987 Kurs teorii muziki. Muharrir A.L.Ostrovskiy. L., 1978.
6. Zelinskiy V. Kurs garmonii v zadachax. M., 1971.
7. Krasinskaya L., Utkin V. Elementarnaya teoriya muziki. M., 1983.
8. Mojjevelov B. Melodii dlya garmonizatsii. L., 1982.
9. Muzikalniy ensiklopedicheskiy slovar. Bosh muharrir G.A.Keldish. M., 1990.
10. Mutli. A. Sbornik zadach po garmonii. M., 1986
11. Myasocedov A. Uchebnik garmonii M., 1980
12. Osnovi teoreticheskogo muzikoznaniya. Muharrir M.I.Roytershteyn. M., 2003.
13. Ostrovskiy L.A. Metodika teorii muziki i solfedjio. L., 1970.
14. Parsegova. A.P. Muzikalnaya forma. T., 2007.
15. Raximov Q. Musiqaning elementar nazariyasi. Ma'lumotnoma. T., 2007.
16. Skrebkova O., Skrebkov S. Xrestomatiya po garmonicheskomu analizu. M, 1978.
17. Sposobin I.V. Elementarnaya teoriya muziki. M., 1985.
18. Sposobin I.V. Musiqa shakli. T, 1985.
19. Tyulin Yu.N. Uchebnik garmonii. M., 1988.